

**OILA YOSHLAR VA BOLALAR BILAN IJTIMOIIY ISH**

Ismoilova Madina Olimjon qizi.

Ergasheva Nafisa Shaxriddin qizi.

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

pedagogika fakultetining

1-kurs Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi.

Annotasiya: *Bola doimiy ravishda o'sadilar va jismoniy bilishiga oid va hissiy jihatdan rivojlanib boradilar. Bolalar tabiiyki, o'z muhitlarda faol va bo'lishga moyil va yangi ko'nikmalarini egallashga harakat qiladilar. Rivojlanish quyidagilarni qamrab oladi: bilishiga oid, ijtimoiy, hissiy, jismoniy, jinsiy, manaviy rivojlanish. Qisqa qilib aytganda, bolaning qanday rivojlanishi qisman tashqi omillarning ta'siriga ham bog'liq.*

Kalit so'zlar: *Bola huquqlari kafolatlari, yoshlar bilan ijtimoiy ish, psixologik maslahat, yoshlar, oilani ijtimoiy himoya qilish tizimlari.*

Аннотация: *Ребёнок постоянно развивается в умственном, физическом, эмоциональном и социальном аспектах. Дети по своей природе активны, стремятся познавать новое и овладевать различными навыками. Развитие ребёнка включает когнитивное, социальное, эмоциональное, физическое, половое и духовное направления. В целом, процесс формирования ребёнка во многом зависит от влияния внешней среды, семейных условий и социальных факторов.*

Ключевые слова: *гарантии прав ребёнка, социальная работа с молодёжью, психологическая консультация, молодёжь, системы социальной защиты семьи.*

Annotation: *A child continuously develops mentally, physically, emotionally, and socially. Children are naturally active, eager to explore new things, and motivated to acquire various skills. Child development includes cognitive, social, emotional, physical, sexual, and spiritual aspects. Overall, a*



child's development is largely influenced by the external environment, family conditions, and social factors.

Keywords: *Child rights, social work with youth, psychological counseling, family and youth, social protection system.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" gi Qonunida shaxs 18 yoshga yetmagunga qadar bola, yoshga deb hisoblanadi. Mazkur qonunga ko'ra, davlat siyosati yo'nalishlaridan biri bolaning or-nomusi va qadr qimmatini himoya qilish, bolalarning jismoniy, intellektual, manaviy va axloqiy rivojlanishiga imkoniyat yaratishdan iborat. Qonunda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, adolat qilishni ham qamrab olgan holda bola qadr qimmatini himoya qilishning kafolatlari nazarda tutilgan. Bugungi kunda Ozbekiston jamiyatida 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalar 8 million nafarni tashkil etadi, bu esa mamlakat butun aholisining 27% ni tashkil etadi. Bolalardan iborat aholining bu ahamiyati ravishdagi solishtirma og'irligi jamiyatning demografik tuzilmasida bolalarni ijtimoiy himoya qilish muammosi, ularni ijtimoiy qo'llab quvvatlash va zarur yordam ko'rsatish muhim ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega.

Yoshlar bilan ijtimoiy ish olib borish shakllari va usullari davlat yoshlar siyosati hal etishi lozim bo'lgan vazifalar doirasi tomonidan belgilanadi. Bolalar yoshlar va oilalar ehtiyojlariga yo'naltirilgan siyosat va dasturlar jamiyat kontekstida uning qadriyatlari, ehtiyojlari va manbalarining mavjudligini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan va amalga oshiriladi. Individual psixologik maslahat berishdan asosiy maqsad- mijoz tomonidan muammoli vaziyatlarda to'liq anglagan, andozaga solinmagan harakatlarni amalga oshirish va unga shaxsiy qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beruvchi yangi imkoniyatlardan foydalanish uchun sharoit yaratishdan iborat."Ishonch telefoni " telefon raqami orqali tezkor psixologik yordam ko'rsatish xizmati sifatida ayniqsa, oilada va tengdoshlari jamoasida hamfikrlarni topa olmagan va yolg'izlik, sodir bo'layotgan hodisalarni ma'nosizligidan tushkunlikka tushib qolgan o'smirlarga ayniqsa zarur.



O'zbekistonda oilani ijtimoiy himoya qilish tizimi asosiy tomonlari me'yoriy- huquqiy baza, davlat hokimiyat organlari, ularning ijtimoiy himoyasini amalga oshiruvchi tashkilotlar va muassasalardan iborat bo'lgan barcha fuqarolarni qamrab oluvchi tizimni aks ettiradi. Xorijiy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, oila bilan ijtimoiy ish olib borish mazkur soha mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan ekologik prinsiplar va konsepsiyalarga asoslangan. Oila muammolari bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy xodimning asosiy maqsadi oila hamda muhiti bilan o'zaro muvofiqlikka erishishdan iborat.

Xulosa. Oila, yoshlar va bolalar bilan ijtimoiy ish jamiyatda eng himoyaga muhtoj guruhlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Bu sohaning ustuvor yo'nalishlari oilalardagi ijtimoiy muammolarni aniqlash va bartaraf etish, yoshlarni bandlik, kasb-hunar va ta'limga yo'naltirish hamda bolalarning huquqlari va xavfsizligini himoya qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. G'aniyeva M.X., Latipova N.M Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi- Toshkent: UzMU,2015.
2. Ganiyeva M.X. Ijtimoiy ishga kirish.- Toshkent: O'zMU, 2011.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Xalqaro huquqiy hujjatlar to'plami// Konsultant - M, 2001.
4. Ijtimoiy ishga kirish "MALIK PIRINT CO" Toshkent -2021 M.X.Ganiyeva,Q.N.Kayumov,M.B.Sherov.
5. Mirziyoyev.Sh.M.O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishidan ma'ruza 2018-yil 8-dekabr
6. Yusupov R.K Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma– Samarqand : SamDU nashri, 2020. – 260 bet.
7. N.M.Latipova, Q.N.Kayumov. "Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari". —T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot — matbaa uyi". 2021. - 324 bet
9. F.D.Muzaffarov, X.R.Nafiddinova. Ijtimoiy ish tarixi. Toshkent. 2023. -164 b.